



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

		paydo bo'lishi: Turar joy sifati - kam ta'minlanganlar uchun nisbatan pastroq bo'lgan.	ataluvchi ko'p qavatli kvartiralarda yashagan. Ular zich joylashgan, ba'zida xavfli (yong'in, qulash) va notashqi sharoitda bo'lgan. Toza suv faqat yuqori qavatlariga yaxshi yetib bormagan.
--	--	---	--

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cambridge University Press, Wikipedia, imperium romanum, Architecture Courses.org, HelpTourists in Rome.
2. Wikipedia, MacSphere (McMaster University), ArchitectureCourses.org
3. Storey, G.R. (2004), The Population of Ancient Rome (JRS).
4. Laurence, R. (2011), The Roads of Roman Italy (Routledge).
5. Frontinus (I asr oxiri), De aquaeductu; Hodge, Roman Aqueducts & Water Supply (Duckworth, 2002).

AVTOMOBIL YO'LLARIDA QISQA DAM OLIISH MAYDONCHALARINI JOYLASHTIRISH.

Tajiev Yusupjan Matyakubovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, "Qurilish"
kafedراس katta o'qituvchisi

Asosiy qism

Harakat xavfsizligi shartlariga ko'ra haydovchidagi zo'riqish kamayishi uchun 3 soat ishlaganidan so'ng kamida 15 daqiqa, 6 soatdan keyin esa kamida 30 daqiqa dam olishi tavsiya qilinadi.

Syurix gigiena va mehnat fiziologiyasi instituti trassada 3 soatdan 5 soatgacha yuradigan kasbi haydovchilik bo'lgan shaxslarga har soatda 5 daqiqa to'xtab dam olishni tavsiya qiladi. 2 soat va 4 soatdan keyin esa kamida 30 daqiqa to'xtab (buterbrod, choy bilan) yengil tamaddi qilish kerak. 8-10 soat ishlab ko'p vaqt dam

olgandan ko'ra ish orasida qisqa vaqt to'xtab, dam olib turishi haydovchining sog'lig'i uchun foydaliroq.

Haydovchi, yo'lovchi va tashish vositasining transport jarayoni ishtirokchisi sifatidagi ehtiyojiga qarab, haydovchi bilan yo'lovchi qisqa dam olish kerakligini hisobga olib umumiy foydalanadigan avtomobil yo'llari yoqasida transport vositalari ma'lum maqsadda to'xtaydigan joylarni belgilab qo'yish mumkin. Umumiy foydalanadigan yo'ldagi harakat ishtirokchilari quyidagi maqsad bilan to'xtashadi: emotsional va aqliy zo'riqishni ketkazish uchun; jismoniy zo'riqishni ketkazish uchun; yo'lni bilish uchun, manbaalardan suv olish uchun; hojat uchun, ovqatlanish uchun; yo'l yoqasidagi chiroyli manzarani ko'rish uchun; e'tiborni tortadigan joylarni ko'rish uchun. Haydovchilar bilan yo'lovchilar to'xtab qisqa dam olishlari uchun yo'l yoqasida shu maqsad uchun joy - maydoncha ajratilib, jihozlanadi. Maydonchalarning tuzilishi har xil bo'lgani bilan qisqa dam olishga mo'ljallangan maydonchalarning hammasi I tur xizmat majmualariga kiradi.

Maqsadiga, jihozlanishiga qarab maydonchalar yo'l yoqasidagi to'xtash maydonchalari, dam olish maydonchalari, manzarani tomosha qilish maydonchalari, ma'lumot olish uchun yo'l chizmasi ko'rsatilgan maydonchalar, tomosha qiladigan estakadali alohida joylashgan maydonchalarga bo'linadi.

Harakat tartibiga qarab qisqa muddatga mo'ljallangan maydonchalar quyidagi turlarga bo'linadi: berk yo'lli, kirish va chiqish yo'llari birlashgan; o'tiladigan; transport vositalari alohida kiradigan va chiqadigan yo'lli; yo'lning harakat bo'ladigan qismiga nisbatan bir yoki ikki tomonli.

Foydalanish muddatiga qarab avtomobil yo'llari yoqasidagi haydovchilar va yo'lovchilar dam oladigan maydonchalar uchta guruhga bo'linishi mumkin: qisqa vaqt to'xtaladigan, qisqa vaqt dam olishga mo'ljallangan va qisqa vaqt mashina qo'yiladigan (kutishga mo'ljallangan) joylar.

Qisqa vaqt to'xtaladigan maydonchalar –engil va yuk avtomobillari harakat vaqtida (yo'lovchilar va haydovchilar chigallarini yozish uchun) bir oz to'xtashiga

mo'ljallangan eng kam uskunalar bilan jihozlangan avtomobil yo'lining muhandislik jihozlangan qismi hisoblanadi.

Bunday maydonchalarda haydovchilar va yo'lovchilarning minimal ehtiyojlarini qanoatlantiradigan jihozlar bo'lishi kerak.

Avtomobil qisqa vaqt qo'yiladigan maydonchalar – avtomobil yo'li yoqasidagi, haydovchi va yo'lovchilar avtomashinani qisqa vaqt qo'yishi uchun mo'ljallangan muhandislik sahni hisoblanadi. Bunday maydonchalarga manzara tomosha qilinadigan joylar, ma'lumot olish chizmalari oldidagi maydonchalar, DAN postlari kirishi mumkin.

Qisqa dam olish joylari to'xtashdan maqsad, harakat jadalligi, yo'l yoqasida bo'sh joyning borligiga qarab belgilanadi va obodonlashtiriladi.

Maydoncha yo'ldan chetda joylashadigan bo'lsa, qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lmagan yer ajratilib, bunday maydonchalarga boradigan yo't o'tkaziladi. yer ajratish QMQ 2.10.09–97 «Avtomobil yo'llari uchun yer ajratish me'yorlari»ga asoslanib bajariladi. Ajratiladigan yerning sahni loyihada, hisob-kitoblarga asoslanib ko'rsatiladi. Dam olish maydonchasi o'rmonda joylashtiriladigan bo'lsa imkoni boricha daraxtlarni saqlab qolish kerak. Daraxt kam kesilishi va belgilangan tartibda kelishilgan bo'lishi kerak.

Qisqa vaqt to'xtaladigan va dam oladigan maydonchalar yo'lining to'g'ri yoki radiusi 1000 m dan ko'p bo'lgan egilgan qismida juft joylashgan, birinchi yuradigan harakat o'ng tomonda bo'lishi kerak, shunda transport oqimini kesib o'tishga ehtiyoj qolmaydi.

Yo'lining bunday qismida bo'ylama qiyaliklar yo'l ko'rinishini 40 foizdan ortiq kamaytirmasligi, har ikki yo'nalishda yo'lining kamida 450 m qismi ko'rinib turishi kerak. Ikkala tomondagi maydonchalar bir-biriga simmetrik qurilishi mumkin, transport oqimini kesib o'tishga ehtiyoj bo'lmasligi uchun, bir xil jihozlangan bo'lishi kerak.

Qisqa dam olish maydonchalariga qisqa vaqt to'xtash va qisqa vaqtga avtomobil qo'yish maydonchalarining zona va elementlari kiradi.

Loyiha andozasi va qurilishi bir xil bo'lishi uchun har bitta maydonchaga alohida seksiya va elementlardan tuzilgan bitta yoki bir nechta aniq ajratilgan funksional zonalar kiradigan «blok» usulini ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday usul bitta yoki bir nechta standart rejali bloklar, seksiya va elementlardan turli ko'rinish va kombinatsiyalar tuzish imkonini beradi. Qoidaga ko'ra har bitta qisqa dam olish maydonchasining umumiy rejalanihi alohida bajariladi va ajratilgan yerning tuzilishi, reliefi, tarkibi va harakat jadalligiga bog'liq bo'ladi.

Umuman oladigan bo'lsak, qisqa dam olishga mo'ljallangan maydoncha alohida zonalaridan iborat kompleks ko'rinishida bo'ladi: yuk transporti, yengil transport, haydovchilar o'zi avtomobillariga texnik xizmat qiladigan, maishiy o'z-o'ziga xizmat qilish, dam olish va sanitar zonalaridan tuziladi. Zonalarning hammasi bitta texnologik va me'moriy badiiy maqsad bilan joylashtiriladi, o'tish yo'llari, kelish yo'llari va yo'lovchilar yuradigan joylar bilan tutashadi. Har bitta zona texnologik fikr bilan birlashtirilgan alohida seksiya va elementlardan tuziladi.

Dam olish maydonlarining bosh rejasi tuzilganda katta o'lchamli yuk avtomobillari va avtobuslar uchun alohida seksiyalar – qo'yish joylarini ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuk avtomobillariga mo'ljallangan zona parallel, perpendikulyar yoki 30, 45, 60° burchakda joylashgan, yuk avtomobillari, avtopoezdlar, avtobuslar qo'yiladigan bitta yoki bir nechta blokdan iborat bo'lishi mumkin.

Maydonchalar yo'lining qatnov qismi yaqinida yoki unga tutash joylashtirilganda harakat xavfsizligi talablariga amal qilish kerak. Shahar tashqarisidagi yo'llarda «ziddiyatli» nuqtalarni kamaytirish uchun imkoni boricha maydonchalarga tushadigan yo'llarni IV va V toifa yo'llarga o'tadigan yo'llar bilan tutashtirish kerak. I–III toifa yo'llardagi qisqa to'xtash joylarini yer polotnosining chetida joylashtirish lozim, magistral va 1-a toifali yo'llarda esa ular alohida yer polotnosida joylashgan bo'ladi. Dam olish maydonchasi, qoidaga ko'ra, yer polotnosining chetida joylashadi. Maydonchalar yo'lining harakat qismidan kamida 2,7 m va ko'pi bilan 150 m chetda bo'lishi kerak. Yo'lga minimal masofada

joylashgan maydoncha yon chekka tosh bilan ajratib qo'yiladi. Yo'l qatnov qismining chetidan yon chekka toshgacha bo'lgan oraliq I va II toifa yo'llar uchun 0,75 m, III toifa yo'llar uchun esa kamida 0,50 m bo'lishi kerak.

Dam olish maydonchalarida yengil avtomobillar turadigan zonani imkoni boricha bitta, ikkita va uchta avtomobilga mo'ljallangan blok joy ko'rinishida loyihalash, dam olish sharoitini yaxshilash uchun bosh planda ularni alohida joylashtirish kerak.

Manzara chiroyli, ichimlik suvi bor, hojatxona qurilgan, bufet, savdo nuqtasi, yuvish imkoniyati bor maydonchalar to'liq ishlatiladi. Hojatxonalar kamida 15-20 km oraliqda o'rnatiladi. Agar xizmat korxonalari, AYoQSh, restoran va hk. hisobiga bu shart bajarilmasa, ular dam olish maydonchalarida ko'zda tutilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.S.Sodiqov, Q.X.Azizov, A.X.O'roqov Avtomobil yo'llarini obodonlashtirish va jihozlash. TAYLQEI Toshkent-2018 52-56 bet.
2. Babkov V. F. Sovremennyye avtomobilnyye magistrali. - M.: Transport, 1984. - 280 s.
3. Sardarov A. S. Arxitektura avtomobilnykh dorog. — 2-ye izd.,
4. pererab. i dop. — M.: Transport, 1993. — 272 s.
5. Sharov, A.Yu. Dorojnyy servis: ucheb. Posobie. FGBOU VO «Uralskiy gosudarstvennyy lesotexnicheskiy universitet», 2018.

UY-JOY QURILISHIDA INVESTITSİYALARNI BOSHQARISH

SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

F.S. Atadjanova

TAQU katta o'qtuvchisi

N.B. Allasugirov

TDIU tayanch doktornati

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda uy-joy qurilishida investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirish masalalari rasmiy statistika va xalqaro manbalar asosida